

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI



*Filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog'istonida
xizmat ko'rsatgan fan arbobi*
**YULDASH MATKARIMOVICH
IBRAGIMOVNING**
100 yillik tavalludiga bag'ishlangan

**«GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKIY
SHEVASHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI»**

mazmunidagi xalqaro ilmiy-nazariy

ANJUMAN MATERIALLARI

23-noyabr 2022-yil



Tosunov
2022

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

*Filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog‘istonda
xizmat ko‘rsatgan fan arbobi*

**YULDASH MATKARIMOVICH
IBRAGIMOVNING**

80 yillik tavalludiga bag‘ishlangan:

**«GLOBALASHUV DAVRIDA TURKIY
SHEVASHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI»**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy

ANJUMAN MATERIALLARI

23-noyabr 2022-yil

Тошкент
“FIRDAVS-SHOH”
2022

UDK- 811.512
ББК 81.2ўзб-2
G-54

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'quv-uslubiy Kengashi tomonidan 2022-yil 10-oktabrdgi 2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan

Maqolalarni to'plovchi va nashr uchun mas'ul:

U.Yu. Ibragimova,

O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi, dotsent. *Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.*

Mas'ul muharrirlar:

Sh.Buranova,

p.f.n., dotsent, O'zbek tili kafedrası mudiri;

U. Yu. Ibragimova,

f.f..doktori (PhD) dotsent.

Tahrir hay'ati:

- Q.A.Qodirov,** NukusDPI Yoshlar bilan ishlash va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori;
G.Qurboniyozov, O'zbek tili kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori;
Sh.M.Buranova, O'zbek tili kafedrası mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
U.Yu.Ibragimova, O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
G.A.Yusupova, O'zbek tili kafedrası katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
S.J.Shinnazarova, Qoraqalpoq tili kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

- N.Q. Murodova,** f.f.d., professor, Navoiy davlat pedagogika instituti;
I.O'. Darvishev, f.f.n., dotsent, Namangan davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrası;
Z.Yu.Ibragimova, f.f.n., dotsent, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası.

Globalashuv davrida turkiy shevashunoslikning dolzarb muammolari xalqaro konferensiya to'plami [Матн]. – Тошкент: “Firdavs-shoh” нашриёти, 2022 й., – 470 б.

Ushbu to'plamda globalashuv davrida shevashunoslikda ilgari surilayotgan yangicha ko'z-qarashlar, o'zbek adabiy tili va sheva munosabati, shevalarning tuzilish xususiyatlari, turkiy tillar shevalarining yangi tadqiqotlari, turkiy shevashunoslikning milliy-madaniy xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, dialektal leksikografiya, dialektal onomastika singari masalalar tadqiq etiladi.

To'plam filolog o'qituvchilar, doktorant-tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar va ushbu soha bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-8752-8-9

© Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, 2022

© “Firdavs-shoh” нашриёти, 2022

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аслонов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили: Филол. фан. ном. ... дисс. –Т.: 2005-1876
2. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2005 57-58 б.
3. Бегматов Э., Орипов Ў. Микротопоним тушунчаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти.- 2000.-№3.-Б, 25-28
4. Латипов Дж. Топонимия города Маргилана и его окрестностей: Автореф. дис. ... канд. филол. Наук. –Т-1975.
5. Лившист В.А., Кауфман В., Дьяконов И.М.О древней согдийской письменности Бухары//Вестник древней истории. №-1, 1954, с. 150-163.
6. НафасовТ. Қашқадарё қишлоқномаси. - Т.: “Мухаррир”, 2009, 430 б.
7. Никонов В.А. Введение в топонимику. –М.: Наука, 1965. – 179 с.
8. Охунов Н. Топонимия Кокандской группы районов: Автореф.дис. ... канд. филол. Наук. –Т-1978.
9. Подольская Н.В.Словарь русской ономастической терминологии.-С.27
10. Суперанская А.В. Общая теория собственных имен. – М.: Наука. 1970. –С.55.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 2-жилд.–Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2001, -700 б.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 12 жилдлик, 3-жилд. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2002, -703 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли, 1-жилд. –М.:“Рус тили”, 1981, 631 б.
14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилдли, 2-жилд. –М.:“Рус тили”, 1981, 715 б.
15. Qorayev S. Toponimika. –Т.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”,2006, 318 б.
16. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдуллонома, 1-жилд. – Т.: 1966, 273 б.

MAHALLIY JOY NOMLARIGA DOIR MULOHAZALAR (USHOR QISHLOG‘I MISOLIDA)

Turdialiyev Anvarbek Xusinovich

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktorant
anvarbekturdialiyev@list.ru

Annotatsiya. Surxondaryo shevalaridagi joy nomlari tadqiqotchilar e’tiborini tortib kelgan. Bu hudud shevalari bo‘yicha A. Mamatqulov, X. Alimurodov, S. Rahimovlarning ishlari mavjud. Bu ishlarda hudud shevalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari to‘g‘risida ilk ma’lumotlar berilgan va joy nomlari ularning nomlanish tarixi haqida tadqiqotlar olib borilmagan. Ushbu maqolada shu hududning kichik bir zonasi – Denov tumaning Ushor qishloq shevasi tahlilga tortilgan va undagi qarluq shevasining qipchoq shevasi va tojik tili bilan o‘zaro aloqasi ta’sirida kelib chiqqan joy nomlari mavjudligi isbotlandi, ya’ni Ushor shevasidagi joynomlari tadqiq e’tiladi.

Kalit so‘zlar. sheva, dialekt, ushor, girtepa, tojik tili, tovabet, dara, juvazak.

Аннотация. Географические названия на сурхандарьинских наречиях привлекли внимание исследователей. На диалектах этого региона есть произведения А. Маматкулова, Х. Алимуродова, С. Рахимова. Эти работы содержат предварительную

информацию о фонетических, лексических и морфологических особенностях региональных диалектов, и никаких исследований по истории географических названий не проводилось. В данной статье анализируется небольшая территория региона - Ушорский сельский диалект Денауского района, и доказывається существование топонимов благодаря взаимодействию карлукского диалекта с кыпчакским диалектом и таджикским языком.

Ключевые слова. шева, диалект, ушор, гиртепа, таджикский язык, товабет, дара, джувазак.

Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan Ushor qishlog‘i Hisor tog‘i etagida joylashgan. Ushor qishlog‘ida yashovchi aholi bu qishloq tarixi haqida turlicha rivoyatlarni dalil keltiradi. Ushor so‘zining ma‘nosi “Ob-sho‘r-suvlari sharillab oqadigan joy, suvli joy degan ma‘noni beradi³⁵”. Qishloq qir-adir, tepaliklardan iborat bo‘lsa ham har bir tepalikka suv bor shu sabab bu nom berilgan bo‘lsa kerak, keyinchalik *obsho‘r-ushor* yoki *o‘shor* nomi bilan yuritiladi. Qishloq qariyalarining ma‘lumot berishlaricha Ushor qishlog‘iga odamlar XV-XVI asrlarda Shayboniyxon davlat tepasiga kelgandan keyin Temuriylarga xizmat qilgan saroy beklari Samarqanddan Shahrizabz orqali Surxondaro viloyati Denov tumanining tog‘li hududlariga kelib joylashgan. Samarqanddan yetti xo‘jalik Aymog‘lar ko‘chib kelib hozirgi ushor qishlog‘ida joylashgan Sovsar tepaligida o‘rnashgan, Aymog‘lar kelib joylashgan vaqtdan biroz vaqt o‘tib Kaltatoylar ulardan keyin tojiklar kelib joylashgan. Qishloq aholisi o‘zbek-tojiklar aralash yashaydi. Shayboniyxon taqibidan qochgan Aymog‘lar va Kaltatoylar podsho taqibi tugagandan keyin ochiq maydonlarga chiqib dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. Hozirgi kunda bu qishloq aholisi 4 mingdan ziyod, qishloqda 2ta o‘rta maktab bor. Bu maktablarda barcha aholiga birday xizmat qiladi. Qishloq aholisi o‘zbek tilida gaplashadi, tojik tilli aholi ham o‘z tilini faqat uyda ishlatadi (ayrim tojik tilli aholi uyda ham tojik tilida gaplashmaydi). Ushor qishlog‘ida tojik tili va o‘zbek tili ijtimoiy omillar ta‘siriga uchragan. Tojik tili o‘z kuchini adabiy til va qarluq lahjasi ta‘sirida yo‘qotgan ammo, tojik tili qarluq lahjasiga ham ta‘sir eta olgan. Bu ta‘sirlar ismlar, joy nomlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari va so‘zlashuvda seziladi. Qishloq vakillarining yoshi kattalari ikki tilda ham bimalol gaplasha oladi. Ushor qishlog‘ining o‘ziga xos toponim va qishloq xo‘jalik, chorvachilikka oid terminlari mavjud quyida shu joy nomlari bilan tanishamiz.

1	Chahag	Čähäg
2	Chaqil	Čaqil
3	Childuxtaron	Čilduxtärän
4	Chorvanzakon	Čärvänzäkän
5	Eshak uchdi	Ešäk üčdi
6	Go‘ri qunduz	Göri qündüz
7	G‘ovrak	ğāvraq
8	Kam	Käm
9	Kofirso‘ydi	Kāfirsojdi
10	Langar ota	Lāņār ata
11	O‘g‘ri tashashdi	Oyrī tašašdi
12	Palvon shahar	Pālvān šähär

³⁵ Mahalliy aholidan yozib olingan audio matnlar

13	Qirqiz	Qīrqīz	
14	Qulqog‘//qilqog‘	Qulqay	
15	Rovotali	Rāvātāli	
16	Ro‘yishkof	Rōjiškāf	
17	Sheri Xudo// Hazrati Ali	Šeri xudā	
18	Shohmar	Šāhmār	
19	Sovsar	Sāvsār	
20	Terakzor	Terākzār	
21	Terakli	Terākli	
22	Tog‘dana mozor	Toydānā mǎzār	
23	Tovabet	Tāvabet	
24	Tuyagum	Tūjägüm	
25	Xonoqoh	Xānāqāh	
26	Yetti olomon	Jetti ālāmān	
27	Qilich buloq	Qilič bulaq	
28	Qo‘rg‘on	Qoryan	
29	Bekliksoy	Bekliksaj	
30	Kichik dara	Kiči‘k dārā	
31	Katta dara	Kättā dārā	
32	Girtepa	Girtepā	
33	Chakka	Čakkā	
34	Xo‘jabarki	Xo‘žabarki	
35	Bo‘rijar	Bōri‘žar	
36	Ko‘chabog‘	Kōčābay	
37	Kampiro‘ldi	Kāmpirōldi	
38	Gaza	Gāzā	
39	To‘ptosh	Toptaš	
40	Dayra	dajra	
41	Pistamozor	pistāmazar	
42	Qiziljar	qizil‘žar	
43	Dashtiso‘xta	dāštisoxta	Samarqanddagi shu nomdagi qishloqdan kaltatoylar ko‘chib kelgan
44	Ko‘hak	kōhāk	
45	Juvozak	jüvāzāk	
46	Xurmon/Xirmon	Xurmān/xirmān	
47	Devkamar	devkāmār	
48	Otashak	ātāšāk	
49	Sartaxta	sartaxta	
50	To‘g‘danasoy	toydanasaj	
51	Tutak	tütāk	

Ushor qishlog‘idagi bu joy nomlarining o‘ziga xos nomlanish tarixi bor. Qariyalarning ma’lumot berishiga qarab ulardan ajrimlarining nomlanish tarixini ko‘rib chiqamiz.

1. Sheri Xudo// Hazrati Ali- Šeri xudā. Bu nom ushor qishlog‘ida joylashgan ziyoratgoh nomi bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi buyuk Sahoba Ali (r.a)ga borib taqaladi. Rivoyat qilishlaricha Sahoba Ali (r.a) kofirlarga qarshi kurash olib borib shu yerlarda kelib jang oldidan dam olgan. Shu yerda joylashgan Harsang toshda

suyanib dam olgan va shu toshga Hazratning sovutlariga yozilgan yozuvlar toshga ko'chib qolgan joy Hazrat nomi bilan nomlanib Masjid ham qurilgan.

2. Rovotali- Rāvātūli. Sahoba Ali (r.a)kofirlar bilan bo'lgan jangda o'z askarlaridan uzoqlashib ketib, jangdan keying shu yerda bir necha kun dam olib otlariga dam bergan. *Rabot+Ali-Rabotali+Rovotali+Alining shahri, Alining qarorgohi, Ali dam olgan qo'rg'on*³⁶.

3. Kofirso'ydi- Kāfirsojdi. Sahoba Ali (r.a) kofirlar bilan jang qilgan joy. Jang davomida shunchalik ko'p odamni qilichdan o'tkazganlaridan kofirlarning qoni daryo bo'lib oqqan. Oqqan qonlar darani to'ldirib jarlikka oqib tushib jarlik qizil tusga kirgan bu jarning nomi **Qiziljar** deb nomlangan.

4. Tuyagum- Tūjūgūm. Sahoba Ali (r.a)urush tugagandan keyin yurtga tinchlik bo'lgandan keyin o'z duldur(ot) larini boshqa duldur(ot)larga qo'shib keng yaylovga qo'yib yuboradilar. O'tlab yurib suvsagan duldur tuyog'i bilan yerni tirnaydi va shu joydan suv chiqadi. *Duldur*³⁷ oyog'i ostidan chiqqan suv o'rni katta hovus holatiga keladi. Hovuzni yettita ko'zi bo'lib suvi hech qurimaydi. Bu hovuzga tushgan mavjudot, jonzot chiqib ketolmaydi. **Tuyagum** shu hovuzga tuya cho'kkandan keyin kelib chiqqan joy nomi.

5. Qilich buloq- Qilič bulaq. Sahoba Ali (r.a) Ushor qishlog'iga kelganlarida suv yo'q, quruq dasht joy bo'lgan keyin qilichlarini toshga urganlarida toshdan suv chhiqa boshlagan, toshdan suv sizib chiqayotgan joy qilichni ko'rinishida. Hozirda ham shu shakl saqlanib qolgan. Bu buloqni o'ziga xos xususiyati bor.

6. Qo'rg'on- Qoryan. Ushor qishlog'ining eng baland qismi. Qishloqqa eng birinchilardan bo'lib ko'chib ko'lgan Aymog'lar shu yerda joylashib Qo'rg'on qurgan keyin kelgan urug' vakillari shu qo'rg'on atrofida joylashgan. Hozirda ham shu qo'rg'onidan to'y va marakalarda odamlarni chorlash uchun jarchilar jar(chaqirishadi) solishadi

7. Kam-Käm. Qishloq chekkasidagi ikkita tepalikning o'rtasi jarlik, chuqurlik joy shu sabab kam deyiladi.

8. Chakka- Čökkä. Qishloqqa kelib joylashgan urug'lar o'zlariga qulay joylarga kelib joylashgan. Qishloqning chekkasiga noma'lum urug' vakillari kaltatoy yoki aymog'larga begona bo'lgan urug' kelib choylashgan va chakkalik urug'i nomi berilgan. Chakkaliklar yashaydigan dara chakka nomini olgan.

9. Dayra- dajra. Ushor qishlog'i va Hisor tog'i o'rtasidan oqib o'tuvchi soy. Daryo-dayra.

10. Qilqog'- Qilqay. Ot tuyog'i bilan kovlangan(qazilgan) buloq

11. Shohmar- Šāhmär (šā:mär). Qadimda bu tepalikka shohlar yashagan shu sahar pdshohinning ismi Umar bo'lgan. Shoh Umar podshoh ismi joy nomiga qo'yilgan mahalliy xalq tilida **Šāhmär** bo'lib yetib kelgan.

12. Xo'jabarki- Xo'žabarki. Besh aka-uka avliyolar o'tgan. Xo'jabarku, Xo'jaipok, Xo'jailg'or, Xo'jaixizr. Shu aka-ukalarni kofirlar o'ldirmoqchhi bo'lganda bular har tarafga qochib yashirinishgan Xo'jabarku qochib Hisor tog'ining eng baland cho'qqisiga chiqib borgan. Odamlar shu cho'qigacha avliyoni tirik ko'rishgan

³⁶ Mahalliy aholidan yozib olingan audio matnlar.

³⁷ Ot(hayvon)

keyin uni kofirlar tutib o'ldirishganmi yoki **Devol tog'dan** oshib Sangardakka o'tib ketganmi bilishmaydi shu chho'qqiga ramziy qabr bor shu qabrni har yili ziyorat qilgani odamlar kelib turadi.

13. Tog'dana mazor- Toydänä mäzar. Mazorat(ziyoratgoh)da bir dona tog'dana daraxti bor. Ko'p kasalliklarga davo izlab odamlar ziyoratga kelishadi. Nom shundan kelib chiqqan

14. Go'ri Qunduz - Göri Qündüz. Go'ri Qunduz bu tarixiy joy nomi Qunduz ismli pahlavon jangchi o'tgan shuning yashagan joyi. Mahalliy xalq orasida bu shaxs Go'ro'g'li avlodlariga, ayrim qariyalar Alpomishning askarlaridan biri yoki o'zi shu xalq qahramonlariga o'xshagan bir shaxs deb hikoya qilishadi("Qunduz bilan Yulduz" dostoni qahramoni bo'lishi ham mumkin).

15. Chahag- Čähäg. Sovsar tepaligida joylashgan katta tosh tepalik. Aymog'lar Ushorga ko'chib kelganda shu tepalikka o'rnamagan. Bu tosh tepalikka chiqishni imkoni bo'lmagan. Podsho askarlaridan yashirinish uchun shu tepalikka yo'l topib chiqishgan va yerni qazib, yer ostida o'zlariga uy, ot - ulovlariga og'ilxona (molxona) qurib yashirincha yashashgan.

16. Kampiro'ldi-kämpiröldi. Qari kampir vafot etgan joy shu nom bilan atala boshlagan.

17. To'ptosh-toptaš. Tepalik katta-katta toshlardan iborat. Uylar shu tosh tepaliklar ustiga qurilgan. Joy nomi shundan kelib chiqqan.

18. Juvozak-žüvžäk. Juvoz – yog' olinadigan olinadigan joy(kichik korxon). Tegirmonga oxshash joy. Zig'ir, zardoli(o'rik), Yeryong'oq, Pista, o'simliklaridan yog' olingan. Juvozlardan foydalanilgan predmet va juvozni aylantirgan hayvonlar nomiga qarab nomlanavergan. Otjuvoz, eshakjuvoz, ho'kizjuvoz, shamoljuvoz, suvjuvoz, elektrjuvozlardan foydalanilgan. Juvozak –juvoz joylashgan joy. Oldin shu yerda juvoz bo'lgan hozirda juvozlardan hech kim foydalanmaydi.

19. Xurmon/Xirmon-xirmän. Bug'doy, arpa, zig'ir, mosh kabilarni yanchib olinadigan keng maydon. Ot, eshak, ho'kiz bilan **galagov** qilib yanchilgan va tegirmonga yuborilgan.

20. Devkamar-devkämär. Rivoyat qilishlaricha bu yerda Dev bolgan odamlar joniga qasd qilgan. Devni o'ldirish, unan qutilishning ilojini topolmagan odamlar Qunduz botirni oldiga borgan. Qunduz botir kelib kamarda makon tutgan Devni o'ldirgan. Joy nomi shundan qolgan.

21. Otashak-ātašäk. Otash-olov+ak-chaqmoq chaqishida hosil bolgan olov yerga urilishidan yerda chuqur joy ya'ni g'or hosil bo'lgan. Otashak shu chaqmoq tushishidan hosil bo'lgan g'or nomi.

22. To'g'danasoy-toydanasaj. Hisor tog'i va qishloq o'rtasidan oqib o'tuvchi dayra bor shu dayraning tog' tomonida bir dona to'g'dana daraxti borligi uchun dayraning tog' tomoni **To'g'danasoy** deyiladi.

23. Tutak-tütäk. Qishloq polvonlari yig'ilishadigan Tut daraxti ko'p bo'lgan joy.

24. Childuxtaron-čilduxtärän. Chil- chilla so'zidan –a tovushi tushib qolgan. Duxtaron tojik tilida qiz bola. Chillada tuyagumda tuyasi bilan chokkan qizni munchoqlari bin qancha vaqtlardan keyin uzoqroqdagi buloqdan(qishloq aholisi ko'proq bu buloqlarni chashma deyishadi) chiqqan shu munchoq chiqqan joy chilla duxtaron- childuxtaron deb nomlangan.

25. Chorvazakon- čärvžäkän. To'rt yong'oq. Chor tojikchada to'rt, mazakon-yong'oq

26. *Eshak uchdi-ešäk üçdi*. Eshak jarlikka tushib ketgan joy (tepalik).
27. *O'g'ri tashashdi-oyri tašašdi*. O'g'rilar qorong'uda qochayotganda tekis yo'l deb o'ylab tepalikdan tushib ketgan joy
28. *Palvon shahar-pälvān šähär*. Go'ri Qunduzni ustida polvonlar to'planadigan joy.
29. *Qirqiz-qırqız*. Shoh Umar qizi uchun qurdirgan qo'rg'on. Malika kanizaklari bilan yashagan.
30. *Sovsar-sāvsär*. Sel kelib katta kenglikni suv oqizib ketgan joy soyning boshi.
31. *Terakli//Terakzor-teräkzär*. Teraklar ekilgan joy.
32. *Kichik dara-kiçik dära*. Kichkina daryo(dayra)ning bo'yida joylashgan keng maydon, ovloq joy.
33. *Katta dara-kättä dära*. Katta daryo(dayra)ning bo'yida joylashgan keng maydon, ovloq joy.
34. *Bo'rijar-börıjar*. Qishda bo'rilar kelib ov qiladigan joy. Cho'ponlar tog'dan qaytayoganda qo'ylariga bo'rilar shu yerda hujum qiladi. Bu yerda tunab qolib bo'lmaydi.
35. *Pistamazor-pistämazar*. Mazoratda (ziyoratgohda) bir dona pista daraxti bor nom shundan kelib chiqqan.
36. *Girtepa-girtepä*. Shoh Umar qiziga qurdirgan qo'rg'onning atrofi tepaliklardan iborat bo'lgan. Qo'rg'onga chiqib tushish faqat yashirin yo'ldan bo'lgan. Kanizaklardan biri dushman tarafdan bir botir(askar)ni yaxshi ko'rib qolib unga yashirin yo'lni aytgan. Dushman shu yo'ldan qo'rg'onga kirib qizlarni o'ldirgan. Qirqiz atrofidagi tepaliklar Girtepa – aylanasiga tepalik degan ma'noni anglatadi.
37. *Bekliksoy//beylisoy-bekliksaj//bejlisaj*. Beklar, boylar aslzodalar yashagan joy.
38. *Ko'chabog'-köçübay*. Yo'lning ikki tomoni ham bog'dan iborat bo'lgani uchun ko'chabog' nomini olgan.
39. *Tovabet- Tāvabet*. Soyning ikkinchi tarafi. Juda katta tekis toshning ustida joylashgan tepalik bo'lganligi uchun *Tova* deb nom olgan.

Xulosa o'rnida Ushor qishlog'idagi joy nomlari o'zbek-tojik tili aholi aralash yashaydigan boshqa hududlardagi kabi ikki tilli yasaliş xususiytiga ega. Denov tumani shevasi o'rganilganda hududda o'ziga xos yasalişga ega bo'lgan joy nomlari va urug'-qabila nomlari bilan bog'liq bo'lgan nomlar mavjudligi aniqlandi. Keyingi tadqiqolarda bu joy nomlarining yasaliş usullari va qaysi tildan o'zlashganligi, joy nomlarining kelib chiqishi haqida batafsil to'xtalamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro'z, 2016.
2. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. -Тошкент: Фан, 2013.
3. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining o'quv izohli lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Rahimov S. O'zbek tili Surxondaryo shevalari (Fonetikasi, Leksikasi). – Toshkent: Fan, 1985.
5. Rahimov S. Surxondaryo O'zbek tili shevalari lug'ati (Fonetikasi, Leksikasi). – Toshkent: Fan, 1995.

MUNDARIJA

I SHO‘BA. TURKIY SHEVASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

Ибрагимов Ю.М. Жанубий оролбўйи ўзбек шевалари лексикасида луғавий бирликларнинг этимологик талқини	3
Қодиров Қ. Тил – давлат сиёсатининг устувор масаласи сифатида.....	10
Murodova N. O‘zbek tilining dialekt sistematikasi	13
Сыдыкова Т.К. Диалектилер – адабий тилдин башаты	16
Ишкильдина Л.К. О фонеме [з] в карайдельском говоре северо-западного диалекта башкирского языка	22
Дарвишов И. Шева – этнослараро жараёнлар ҳосиласи.....	28
Дўсимов З., Алимова Ш.М. Хоразм қипчоқ шеваларида туркий қатламга мансуб айрим сўзлар таҳлили	34
Закиров А.А., Ахмедов С.Н. Лексико-семантические источники образования этнопонимов джизакского региона	39
Мугтасимова Г.Р. Татар халык мәкальләрендә күзәтелгән морфологик диалектизмнар.....	42
Darvishov I.O., Ibragimova Z.Yu. Vowels in turkic dialects and related linguistic patterns.....	46
Сәлахова Р.Р., Хәсәнова А.Р. Татар теле дилектларында кайбер туганлык атамаларының кулланылыш үзенчәлекләре	56
Norbayeva Sh.X. Xorazm shevalari leksikasi tarkibida substrat asosli birliklar	61
Базаралиева Г.К., Кожобекова Г.С. Кыргыз тилинин аксы говорундагы тилдик өзгөчөлүктөрү	66
Rahmonov S. Chandir shevalarining boshqa shevalar bilan munosobati.....	75
Rahmanov B.A. Surxondaryo dialektal maqol, matal va aytimlarida uchraydigan etnografizmlarning etnomadaniy xususiyatlari	77
Садыралиева Г.Э. Кыргыз тилиндеги диалектилердин лингвомаданий өзгөчөлүктөрү	82
Янгибаева Н.Г. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек адабий тили шеваларининг фонетик хусусиятлари	86
Allamberganova M. Turkiy yozma yodgorliklar tilidagi so‘zlarning o‘zbek shevalarida qo‘llanishi.....	90
Nurjonov O.E., Ruzmetova I.K. Xorazm qipchoq shevalari etnografik leksikasidagi so‘z yasalishi hodisasi.....	93
Alimova Z.V. Sharq shevashunosligi va fors tilining tehron lahjasi xususida ..	96
Hasanov A.M. O‘zbek adabiy tilidagi leksik bo‘shliqlarni sheva so‘zlari bilan to‘ldirilish tarixiga nazar	99
Djoldasbayeva A. Shevalarda ifodalangan taom nomlarining izohi	104

II SHO‘BA. LINGVOGEOGRAFIYA VA AREAL LINGVISTIKANING NAZARIY-METODIK ASOSLARI

Ashirboyev S. Kontinuum va uning areal lingvistikadagi talqinlari.....	107
---	-----

Нурова Ю.У. Паремалардаги озиқ-овқат номлари этнолингвистика объекти сифатида	272
Sariyev Sh. Madir kulolchilik leksikasi talqini	275
Отениязов П. Қарақалпақ халық ертеклеринде көркем сүүретлеў қуралларының қолланылыўы	278
Казаков И., Жаңабаева Р.Т. Ўзбек ва қарақалпоқ тилларида йилқи сўзининг қўлланилиши	284
Abdullayev O.I. O‘zbek va qoraqalpoq tili lug‘atchiligining boyish manbalari va yo‘nalishlari	287
Karimboyeva Ch. Inson ismlariga qo‘shib aytiladigan laqablar etimologiyasi (amudaryo tumani misolida)	290
Adizova N.B. Buxoro viloyat toponimiyasining mavzuviy-nominativ tasnifi...	293
Turdialiyev A.X. Mahalliy joy nomlariga doir mulohazalar	299
Шэйхулов Ю.Д. Төрки сүзләрнең инглиз сүзлекләрэндәге урыны.....	303
Yusupov S.Sh. Ota leksemali nekrotoponimlar	309
Hodiyeva M.A. Kasbi tumanidagi <i>maymanoq, tug‘lon</i> qishloqlarining tarixiy- etimologiyasi	312
Fayzullayeva T. Pastdarg‘om tumani sag‘zil qishloq leksikasidan namunalar	315
Xazirbayeva M. Qoraqalpog‘iston hududidagi turkiy xalqlar etnografiyasi.....	319
Хидралиева З.Р. Иқон шеvasида сон сўз туркуми	322

IV SHO‘BA. ADABIY TIL VA SHEVALAR MUNOSABATI

Бердиалиев А. Тилнинг этник гуруҳларга хос амалий шакллари тизимида адабий тилнинг мавқеи ҳақида	325
Абдрахманов Р.Х. Сөзөзгеримнің тілдік механизмін жасаудағы дәйек қосалқылардың рөлі	330
Axrorov A.A., Begimqulova S.F. Fe‘lda analitik usulda shakl yasalish masalasi	336
Бускунбаева Л.А. Особенности функционирования контекстуально -неполных предложений в башкирском языке.....	338
Хошниязов Ж. «Қорқыт» атамасы туўралы.....	343
Lubna Ali Mohammed. Contrastive analysis of arabic and english consonants	346
Маҳмудов Р.Ж. Янги Ўзбекистонда тил тараққиётининг муаммолари.....	356
Ibragimova U. Nutqiy samaradorlikni ta‘minlashda ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarning o‘rni	363
Shinnazarova S. T. Qayipbergenov shigarmalarinda qospa gap turindegі somatikaliq frazeologizmler	367
Said Mohammad Olim Labib. O‘zbek tilida arab alifbosidan foydalanishning muammolari.....	369
Оразбаев Э.Ю. Туркий тиллардаги арабча ўзлашмаларда ундошлар таркибидаги вариантлик	376
Rahimova M.O., Muhammadqodirova F.O. Presuppozitsiya hodisasining yuzaga kelishi va o‘rganilish jarayoni.....	379
Rasulova A.M. Shart maydonida modal so‘zlarning o‘rni	382

*Filologiya fanlari doktori, professor, Qoraqalpog‘istonda
xizmat ko‘rsatgan fan arbobi*

**YULDASH MATKARIMOVICH
IBRAGIMOVNING**

80 yillik tavalludiga bag‘ishlangan:

**«GLOBALASHUV DAVRIDA TURKIY
SHEVASHUNOSLIKNING DOLZARB
MUAMMOLARI»**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
ANJUMAN MATERIALLARI

23-noyabr 2022-yil

Мухаррир: Д.Улуғмуродов
Дизайнер: Б.Хайдаров

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги
Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги томонидан 3996-сонли
ТАСДИҚНОМА берилган.

Босишга рухсат этилди: 08.12.2022 й.
Бичими 60x84 ¹/₈. Офсет қоғози.
Офсет босма усулида босилди.
“Times” гарнитураси.
Шартли босма табоқ 27,5.
Адади 200 нусха.

Оригинал макет
“FIRDAVS-SHOH NASHRIYOTI”да тайёрланди.
Тошкент ш., Навоий кўчаси, 30.
Tel.:+99890-372-85-17